



BUG'DOY YETISHTIRISH KO'RSATKICHLARI VA TAHLILI

Savurova Mahliyo Xolbek qizi

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali

Agrobiologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolamda odamlar uchun asosiy o'simlik bo'lgan bug'doy haqida so'z boradi. Bug'doy oqsillarga boy bo'lib oqsili manbai bug'doy doni u kundalik oziq-ovqat ratsionida oqsilga bo'lgan ehtiyojning 50 % ini qondiradi. O'zbekistonning lalmikor sharoitida o'stirilgan bug'doylar yuqori quyosh energiyasi va samarali harorat ta'sirida ko'p va sifatli oqsil, kleykovina to'playdi. Bug'doy bir nechta vitaminlar, kraxmal, oqsillar va yog'larning muvozanatini ta'minlaganligi sababli, u ajoyib ozuqa manbai hisoblanadi. Bug'doy nonidagi oqsilning hazm bo'lishi 95 foizni tashkil qilishi haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Bug'doy, un, non, don, oqsil, kraxmal, o'simlik, vitamin, lalmikor, oziq-ovqat, qurg'oqchilik, hosildorlik, vegetatsiya, biokimyoviy birikma, kleykovina, ma'danli moddalar, pigmentlar va fermentlar iqlim, tuproq, o'g'itlar, agrotexnika.

Kirish

Bug'doy – g'alladoshlar oilasiga mansub o'tsimon o'simliklar turkumi. 30 ga yaqin yovvoyi va madaniy turlari bor. Bug'doyning ildiz tizimi **popuk ildiz** bo'lib, asosiy qismi yerning haydalma qatlamida rivojlanadi, ayrim ildizlar esa 180 sm gacha chuqurga kirib boradi. Poyasi – sidirg'a bo'g'imlarga bo'lingan somonpoya, bo'yi 40-130 sm. Bug'doyning yotib qolishga chidami va hosildorligi poyaning balandligiga bog'liq.

Bug'doy ko'proq o'zidan changlanadi. Mevasi don. Bo'liqligi jihatidan yumshoq (urvoqli) yoki qattiq (yaltiroq, qayroqli) bug'doyga bo'linadi. Yumshoq bug'doy boshog'i qiltiqli va qiltiqsiz, qiltig'i boshog'idan kaltaroq; doni oq yoki qizg'ish, ko'ndalang kesimi dumaloq, ichi, asosan, unsimon. Qattiq bug'doy boshog'i zich, qiltiqlari boshog'idan uzun va tik o'sadi. Doni to'yimli, tarkibida oqsil (seleksion navlarida 10-12% dan 20-25% gacha, yovvoyi turlarida 25-30% gacha) kraxmal (60-64%), yog'lar, vitaminlar, fermentlar, mineral moddalar bor. Bug'doy donidan turli navli unlar, yorma, spirt, kraxmal kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Boshqalash davrida namga talabchan. Qurg'oqchilik hosildorlikni pasaytiradi. Kuzgi bug'doyning vegetatsiya davri kuzda 45-50, bahor-yozda 75-100 kun, bahorgi bug'doyniki 90-100 kun. Kuzgi bug'doy qor qoplami qalin bo'lganda – 35°C gacha sovuqqa chidaydi. Bahorgi bug'doy maysalari -8-10°C daraja sovuqqa bardosh beradi. Sug'oriladigan mintaqalarda kuzgi bug'doyni makkajo'xori, g'o'za, kartoshka va boshqa dala ekinlaridan bo'shagan unumdor yerlarga ekish tavsiya etiladi. Nordon va sho'rlangan tuproqda yaxshi o'smaydi. Ekish usuli yoppasiga qatorlab (qator orasi 12-15 sm) yoki tor qatorlab (qator orasi 7-8 sm ekiladi. Ekish me'yori – lalmi yerlarda gektariga 70-110 kg, sug'oriladigan mintaqalarda 170-200 kg, ekish chuqurligi 4-6 sm; kuzgisi chuqurroq ekiladi, ekish me'yori



10-15% ortiq olinadi, urug'lik ekish oldidan saralab, dorilanadi. O'zbekistonning sug'oriladigan sharoitida bug'doy ekiladigan yerga ekishdan oldin har gektar yerga 10-15 t go'ng, 40-80 kg fosfor, 40-100 kg azot, kaliy solish tavsiya etiladi. O'suv davrida ham ekinzor o'g'itlanadi, suvli yerlarda o'suv davrida 2-3 marta sug'oriladi.

Boshog'i piramidasimon shaklda, o'rtacha uzunlikda, oq rangli. Doni yirik, qizil rangda, tuxumsimon shaklda. 1000 dona don vazni o'rtacha 40,4 g dan 58,0 g gacha.

O'simlik bo'yi o'rtacha: 80 sm dan 105 sm gacha.

Nav yotib qolishga va to'kilishga chidamli, 5,0 ball. Qishga chidamliligi 5,0 ball. Sug'oriladigan Davlat nav sinash uchastkalarida o'rtacha hosildorlik 38,0 s/ga dan 72,9 s/ga gacha. Vegetatsiya davri 185-225 kun. Respublika don inspeksiyasi laboratoriyasining ma'lumotiga ko'ra navning non yopish bahosi 2,5 ball. Kleykovina miqdori 25 %.

O'rtacha hosildorlik: 8,7-23,0 s/ga. Vegetatsiya davri 189-192 kun.

Bahorgi muddatda konkurs sinovida o'rtacha hosildorlik 7,3-14,8 s/ga, vegetatsiya davri 94 kun. Qishloq xo'jalik kasalliklari bilan (zang) zararlanish holatlari konkurs sinovida kuzatilmagan.

Mamlakatimiz hududida *Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida* ekish uchun tavsiya qilingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda bug'doyning 93 navi yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida bug'doy eng muhim oziq-ovqat ekinlari hisoblanadi. Dunyo aholisi ozuqa ratsionining asosiy qismini don va don mahsulotlari tashkil etadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi nonni ko'p iste'mol qiladi, shu jihatdan bug'doy donining hayotimizdagi o'rni nihoyatda katta. Jahon ekin maydonlarining 14% ni don ekin maydonlari egallaydi. Oziq-ovqat savdosida don mahsulotlari 50% ni tashkil qiladi. Shunga ko'ra jahon bozorida bug'doy mahsulotiga talab katta.

Shu sababli bug'doyni tez fursatda yetishtirib, ko'p hosil olish, bug'doy unining sifatini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bo'yicha bug'doy yetishtirish yiliga 760 million tonnani tashkil etadi, - deydi O'g'iloy Xidirova. - 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 850 million tonnaga oshirish kutilmoqda. Shu munosabat bilan butun dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini oshirishga qaratilgan seleksiya yo'nalishlari keng tarqalmoqda. Buning uchun ko'p tadqiqotlar jahonda ham, yurtimizda ham, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, dehqonchilikning moslashuvchan tizimini ishlab chiqish va joriy etish asosidagina bug'doy donining sifati sezilarli darajada oshishiga erishish mumkin. Shu bois, hosildor, yuqori don sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan, stressli ekologik sharoitlarga chidamli navlarni yaratish uchun boshlang'ich shakllarini o'rganish, genetik manbalarni ajratish va chatishtirish dasturlarida yangi istiqbolli bug'doy navlarini yaratish dolzarb muammo hisoblanadi. Bug'doy qattiq va yumshoq turlarga bo'linadi. Yumshoq bug'doylardan, asosan, non tayyorlanadi. Qattiq bug'doylar makaron, konditer sanoatida foydalaniladi. Uning unidan tayyorlangan xamir zich, elastikligi past, egiluvchanligi yuqori, cho'ziluvchanligi kam bo'ladi, kleykovina hosil qilmaydi. Bug'doy don sifatini yaxshilash muammosi bozor iqtisodiyoti sharoitida



muhim ahamiyatga ega. Kuchli bug'doy donlaridan sifatli non mahsulotlari olish ko'rsatkichi yuqori bo'lib, donning sarflanishini kamaytiradi.

Odatda, bug'doy doni oqsili protoidlar va protoinlar shaklida bo'lib, sifatli non va non mahsulotlari tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Bug'doy doni sifatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri uning tarkibidagi oqsil va kleykovinadir. Sifatli non tayyorlashda xamir cho'ziluvchanligini belgilovchi biokimyoviy birikma kleykovina hisoblanadi. Bug'doy donining kimyoviy tarkibi juda o'zgaruvchan. Uning tarkibidagi oqsil, kleykovina, ma'danli moddalar, vitaminlar, pigmentlar va fermentlar iqlim, tuproq va solinadigan o'g'itlar, qo'llaniladigan agrotexnikaga, navlariga bog'liq holda o'zgarib turadi. Dunyo standarti talablarida bug'doy doni tarkibida oqsil miqdori 13,5 % dan kam bo'lmasligi qayd etiladi. Bug'doy doni tarkibidagi oqsil miqdori undan qanday maqsadlarda foydalanishni belgilaydi. Non yopish uchun don tarkibida 14—15 %, makaron mahsulotlari tayyorlashlari uchun 17—18 % oqsil bo'lishi talab etiladi.

Odamlar uchun asosiy o'simlik oqsili manbai bug'doy doni bo'lib, u kundalik oziq-ovqat ratsionida oqsilga bo'lgan ehtiyojning 50 % ini qondiradi. O'zbekistonning lalmikor sharoitida o'stirilgan bug'doylar yuqori quyosh energiyasi va samarali harorat ta'sirida ko'p va sifatli oqsil, kleykovina to'playdi. Bug'doy uning non yopishga yaroqlilik sifatlarini aniqlashda nonning hajmiga, g'ovakligiga, yoyilib ketishiga ta'sir qiladigan kleykovinaning miqdori va sifati muhim ahamiyatga ega. Bug'doy bir nechta vitaminlar, kraxmal, oqsillar va yog'larning muvozanatini ta'minlaganligi sababli, u ajoyib ozuqa manbai hisoblanadi. Bug'doy nonidagi oqsilning hazm bo'lishi 95 foizni tashkil qiladi. Bug'doy doni, somoni va poxoli yem-xashak sifatida chorva mollariga beriladi. Bug'doyni yanchishdan chiqqan chiqindilar chorva mollari uchun yuqori sifatli ozuqa hisoblanadi. Texnikada bug'doy donidan spirt, kraxmal, kleykovina, dekstrin, kley va boshqa har xil mahsulotlar olinadi.